# O‘ZBEKISTONDA ISLOMIY SUG‘URTA (TAKAFUL) MODELINI JORIY ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

**Xushnazar Jo‘rayev**
Toshkent davlat yuridik universiteti
Huquq va texnologiyalar sho‘basi o‘qituvchisi
Elektron pochta manzili: juraevkhushnazar@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21224978

**ANNOTATSIYA**

Ushbu tadqiqot islom huquqi normalariga asoslangan muqobil sug‘urta modeli — takaful tizimini O‘zbekiston iqtisodiyotiga tatbiq etishning konseptual, iqtisodiy va normativ-huquqiy jihatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. An’anaviy tijorat sug‘urtasining shariat tamoyillariga zid bo‘lgan jihatlari, xususan ribo (foiz), g‘arar (noaniqlik) va maysir (qimor) elementlari ochib berilgan. Huquqiy jihatdan esa O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-730) hamda 2026-yil 27-martda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” Qonuni (O‘RQ-1126) doirasida takaful tizimining joriy huquqiy maqomi tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** takaful, islomiy moliya, ribo, g‘arar, maysir, muzoraba, shariat kengashi, muzorib.

## 1. Kirish

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya-bank tizimi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan sug‘urta bozori makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, investitsiya oqimlarini oshirish hamda jismoniy va yuridik shaxslarni kutilmagan iqtisodiy va tabiiy ofatlar oqibatidagi zararlardan himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq iqtisodiyot globallashuvi va xizmatlar diversifikatsiyasi sharoitida an’anaviy moliya institutlari aholining barcha qatlamlarini to‘liq qamrab olish imkoniyatiga ega emas. Buning eng asosiy sabablaridan biri — ma’naviy, madaniy va diniy-axloqiy omillardir. Ushbu ehtiyoj dunyo miqyosida islomiy moliya infratuzilmasining, xususan, an’anaviy sug‘urtaga muqobil bo‘lgan takaful (islomiy sug‘urta) tizimining vujudga kelishi va jadal rivojlanishiga zamin yaratdi. Takaful arabcha “kafala” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zaro kafolat berish, bir-birini himoya qilish va umumiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish ma’nolarini anglatadi. Ushbu tizim ijtimoiy adolat, o‘zaro birodarlik va tijoriy foyda ortidan quvmasdan, balki jamoaviy birdamlik asosida xavf-xatarlarni taqsimlash g‘oyasiga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining demografik ko‘rsatkichlari va iqtisodiy o‘sish dinamikasi bilan Markaziy Osiyo mintaqasida islom moliyasi va sug‘urtasining eng yirik potensial bozorlaridan biri hisoblanadi. Doimiy aholi soni 2026-yil boshiga kelib 38,2 million kishidan oshgan va aholining o‘rtacha yoshi 28,5 yoshni tashkil etmoqda. Diniy va etnik tarkib nuqtai nazaridan, mahalliy va xalqaro tahliliy manbalarga ko‘ra, mamlakat aholisining qariyb 94 foizdan ortig‘i islom diniga e’tiqod qiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy islohotlar natijasida milliy sug‘urta bozori barqaror o‘sish sur’atlarini namoyish etmoqda: 2023-yildagi 8,06 trillion so‘mlik umumiy sug‘urta tushumi 2024-yil yakuniga kelib 9,77 trillion so‘mga yetdi va 21,2 foizlik o‘sish qayd etildi. Shunga qaramasdan, mamlakat sug‘urta bozorining yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi atigi 0,6–0,8 foiz atrofida tashkil etmoqda, holbuki ushbu ko‘rsatkich rivojlangan davlatlarda hamda global miqyosda o‘rtacha 7 foizni tashkil etadi. Bu tizimli tafovut aholining katta qismi diniy sabablarga ko‘ra an’anaviy sug‘urta shartnomalaridan ongli ravishda voz kechayotganligini va bozorda yetarli

ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi takaful tizimining huquqiy mexanizmlarini ochib berish va uni O‘zbekiston qonunchilik muhitiga integratsiya qilishni ilmiy tahlil qilishdan iborat.

Islom huquqshunosligi va islom iqtisodiyoti doirasida sug‘urta munosabatlarini tartibga solish masalasi XX asrning o‘rtalaridan boshlab keng ko‘lamli ilmiy bahslarga sabab bo‘lib kelmoqda. Klassik islom huquqi manbalarida zamonaviy ko‘rinishdagi tijorat sug‘urtasi shartnomalari uchramaydi, biroq uning o‘rnini bosuvchi va ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlovchi muayyan institutlar mavjud bo‘lgan. Xususan, qadimgi islom huquqidagi “aqila” instituti bunga misol bo‘la oladi. Unga ko‘ra, biror guruh yoki qabila a’zosi tasodifan kimgadir moddiy yoki jismoniy zarar yetkazganda (masalan, ehtiyotsizlik oqibatida qotillik sodir bo‘lganda), uning qabiladoshlaridan iborat jamoa jabrlanuvchi tomonga birgalikda “diya” (tovon) to‘lashga majbur bo‘lgan. Bu mexanizm zamonaviy kooperativ va o‘zaro sug‘urta tizimining ilk huquqiy asosi hisoblanadi.

**2. Asosiy qism: an’anaviy sug‘urtaning shariatga zid elementlari**

Islom huquqshunosligida shartnomaviy munosabatlarning haqiqiyligi va adolatliligi uchun uchinchi shaxslarning huquqlari poymol qilinmasligi hamda bitimda zulm, aldov yoki adolatsizlik elementlari bo‘lmasligi shart. An’anaviy tijorat sug‘urtasi o‘z mohiyatiga ko‘ra mijoz va kompaniya o‘rtasidagi oldi-sotdi bitimi hisoblanadi. Ushbu shartnomada islom moliyasida qat’iyan man etilgan uchta fundamental ziddiyat mavjud bo‘lib, ularni quyida birma-bir tahlil qilamiz.

**2.1. Ribo (foiz va sudxo‘rlik) elementi**

Ribo - kapitalni qarzga berish yoki majburiyat evaziga oldindan aniq belgilangan foiz hisobiga hech qanday mehnat va tavakkalchiliksiz ko‘paytirishdir. Muqaddas Qur’oni Karimda: “Alloh savdoni halol, riboni esa harom qildi” (Baqara surasi, 275-oyat) deb nozil qilingan. An’anaviy sug‘urta kompaniyalari o‘z faoliyatini moliyaviy investitsiyalar hisobiga yuritadi. Mijozlar to‘lagan sug‘urta mukofotlari (premiums) investitsiya fondiga yig‘iladi va qonunchilik talablariga muvofiq, likvidlilikni ta’minlash uchun asosan davlat obligatsiyalari, foizli bank depozitlari hamda sudxo‘rlikka asoslangan boshqa instrumentlarga investitsiya qilinadi. Olingan foizli daromadlar kompaniyaning balansida aks etadi va aksiyadorlar o‘rtasida dividend sifatida taqsimlanadi. Bu — islom huquqi nuqtai nazaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri riboning yaqqol namunasidir. Takaful modelida esa bu mablag‘lar faqat halol (shariat standartlariga mos savdo-sotiq) loyihalarga, masalan, spirtli ichimliklar, qimor, tamaki yoki an’anaviy bankchilik sohalaridan uzoq bo‘lgan real sektor loyihalariga investitsiya qilinadi.

**2.2. G‘arar (noaniqlik) elementi**

G‘arar — bitim tuzilayotgan vaqtda uning oqibati, predmeti yoki narxining noma’lumligi, ya’ni shartnomaning mavhumligidir. An’anaviy sug‘urtada g‘arar shartnomaning asosini tashkil etadi. Mijoz sug‘urta kompaniyasi bilan shartnoma imzolab, muayyan miqdordagi pulni to‘laydi (masalan, yillik 3 000 000 so‘m). Biroq, u ushbu to‘lov evaziga kompaniyadan biror-bir moddiy qiymat oladimi yoki yo‘qmi — buni oldindan bilmaydi. To‘lov faqat kelajakda tasodifiy sodir bo‘ladigan voqeaga (sug‘urta hodisasiga) bog‘liq. Agar 10 yil davomida hech qanday avariya yoki baxtsiz hodisa ro‘y bermasa, mijoz to‘lagan jami 30 000 000 so‘m mablag‘ to‘liqligicha kompaniya mulkiga aylanadi va mijozga hech qanday mablag‘ qaytarilmaydi. Aksincha, agar mijoz birinchi oyda yengil badal to‘lab, katta halokatga uchrasa, kompaniya unga millionlab mablag‘ to‘lashga majbur bo‘ladi. Tomonlarning kim qancha berishi va qancha olishi noaniq bo‘lganligi sababli, ushbu bitim shariatda botil (haqiqiy emas) deb topiladi. Takafulda esa yil yakunida jamg‘armada to‘planib, ishlatilmay ortib qolgan mablag‘lar kompaniya mulkiga aylanib ketmasdan, ishtirokchilarning o‘ziga qayta taqsimlanadi.

**2.3. Maysir (qimor) elementi**

Maysir g‘ararning to‘g‘ridan-to‘g‘ri oqibati bo‘lib, bir tomonning tasodif yordamida ikkinchi tomon hisobidan boylik orttirishi, ya’ni birining yutishi boshqasining yutqazishiga olib keladigan o‘yin shaklidir. An’anaviy sug‘urta shartnomasi qimor ssenariysiga juda o‘xshash ishlaydi: mijoz o‘z pulini tikadi va “agar baxtsiz hodisa bo‘lsa, men yirik tovon puli olaman, agar bo‘lmasa pulim kompaniyaga qoladi” deb umid qiladi. Sug‘urta kompaniyasi esa hisob-kitoblar va ehtimollar nazariyasiga tayanib, mijozlarning aksariyati halokatga uchramasligini oldindan biladi va o‘zaro statistik ustunlik orqali foyda ko‘radi. Ya’ni, mijoz va kompaniyaning manfaatlari bir-biriga zid bo‘lib, biri zarar ko‘rish evaziga ikkinchisi foyda oladi. Islom moliyasida esa moliya tizimining maqsadi o‘zaro foyda ko‘rish (win-win) bo‘ladi. Takaful tizimi tabarru (ehson) shartnomasi orqali g‘arar va maysirni butunlay yo‘q qiladi, chunki ehson shartnomasida tijoriy almashinuv bo‘lmaydi, ishtirokchilar fonddagi mablag‘ni qaytarib olish sharti bilan emas, balki boshqa baxtsiz hodisaga uchragan sherigiga yordam berish niyatida to‘laydilar.

**3. Takaful tizimining ishlash mexanizmi**

Takaful tizimining amaliyotda ishlashi uchun sug‘urta kompaniyasi (takaful operatori) va ishtirokchilar (mijozlar) o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar aniq shar’iy shartnomalar asosida qurilishi lozim. Global islom amaliyotida asosan ikkita operatsion model keng qo‘llaniladi. Bular Muzoraba (foyda taqsimoti) va Wakalah (agentlik vositachiligi) modellardir.

Muzoraba modelida takaful operatori va ishtirokchilar o‘rtasida kapital va mehnat sherikchiligi shartnomasi tuziladi. Ishtirokchilar kapital yetkazib beruvchi (rabbul-mol), takaful operatori esa boshqaruvchi (muzorib) hisoblanadi. Yig‘ilgan sarmoyalar shariatga mos aktivlarga investitsiya qilinadi va olingan investitsiya foydasi oldindan belgilangan nisbatda (masalan, 80% ishtirokchilarga, 20% kompaniyaga) taqsimlanadi. Agar investitsiyada zarar ko‘rilsa va bu operatorning aybi bilan bo‘lmasa, zarar ishtirokchilarning kapitalidan qoplanadi, operator esa qilgan mehnati va vaqtiga kuyadi.

Zamonaviy takaful bozorida eng ommabop model — Wakalah modelidir. Bunda operator ishtirokchilar nomidan fondni boshqarish uchun vakil (wakil) etib tayinlanadi. Operator o‘z xizmatlari uchun oldindan belgilangan aniq miqdordagi haqni (Wakalah fee) fondga badallar kelib tushgan vaqtda yechib oladi. Bu haq odatda badal summasining 10 dan 30 foizigacha bo‘lishi mumkin. Qolgan barcha mablag‘lar to‘liqligicha fondda qoladi, investitsiyadan olingan barcha foyda ham to‘liq ishtirokchilarga tegishli bo‘ladi. Kompaniya faqat samarali boshqaruv uchun rag‘batlantiruvchi mukofot (incentive fee) olishi mumkin.

**4. O‘zbekiston Respublikasida takaful tizimi faoliyat olib borishi uchun joriy huquqiy holat**

O‘zbekistonda takaful tizimini rivojlantirishning huquqiy asosi ikki yoqlama xarakterga ega. Bir tomondan, Fuqarolik kodeksida mustahkamlab qo‘yilgan “shartnomalar erkinligi” tamoyili fuqarolarga qonun bilan taqiqlanmagan har qanday bitimlarni imzolash huquqini beradi. Bu esa nazariy jihatdan takaful shartnomalarini tuzishga yo‘l ochadi. Ikkinchi tomondan, sug‘urta faoliyati maxsus litsenziyalanadigan soha bo‘lib, amaldagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-730-sonli Qonun talablariga qat’iy bo‘ysunadi. Ushbu qonun hujjatlarini chuqur yuridik tahlil qilish jarayonida takaful tizimiga to‘sqinlik qiluvchi quyidagi fundamental huquqiy bo‘shliqlar mavjudligi aniqlandi:

**1. Tashkiliy-huquqiy cheklovi:** O‘RQ-730-sonli qonunning 39-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston hududida sug‘urtalovchi sifatida faoliyat yuritish uchun tashkilot aksiyadorlik jamiyati (AJ) shaklida tuzilishi qayd etilgan. Aksiyadorlik jamiyati esa o‘z tabiatiga ko‘ra aksiyadorlar foydasini maksimallashtirishga yo‘naltirilgan tijoriy tuzilmadir. Takaful modeli esa kooperativ, o‘zaro sug‘urta jamiyati yoki xayriya fondi shaklidagi tashkiliy-huquqiy tuzilmani talab qiladi.

**2. Terminologik va litsenziya turi bo‘shlig‘i:** Yuqorida keltirilgan qonunning to‘liq matnida “takaful”, “islomiy sug‘urta”, “tabarru fondi” yoki “Shariat nazorati kengashi” kabi huquqiy terminlar umuman tilga olinmagan. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (NAPP) tomonidan tasdiqlangan litsenziyalash talablarida takaful operatorlari uchun alohida litsenziya turi yoki maxsus ruxsatnoma berish tartibi ham nazarda tutilmagan. Bu huquqiy noaniqlik (legal uncertainty) xalqaro investorlarning bozorga kirishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

**3. O‘RQ-1126-sonli qonunning cheklangan doirasi:** 2026-yil 27-martda qabul qilingan O‘RQ-1126-sonli qonun mamlakatimizda islomiy bank faoliyatini joriy etishda inqilobiy qadam bo‘ldi. Ushbu qonun bilan Soliq kodeksiga “islomiy sug‘urta va islomiy qayta sug‘urta tashkilotining shartnomalar bo‘yicha daromadlari” tushunchasi kiritildi va ularga soliq solish prinsiplari belgilandi. Bu — juda muhim yutuq. Biroq mazkur qonun asosan bank sohasiga yo‘naltirilgan bo‘lib, Markaziy bank huzuridagi Islomiy moliya kengashining vakolatlari faqat banklar bilan cheklangan. Sug‘urta regulyatori uchun takafulni nazorat qilishning operatsion mexanizmlari qonunda batafsil ochib berilmagan.

## 5. Xulosa

Takaful — shunchaki diniy ehtiyojlarni qondiruvchi mexanizm emas, balki iqtisodiy adolat, ijtimoiy mas’uliyat va shaffoflikka asoslangan eng ilg‘or zamonaviy sug‘urta modellaridan biridir. An’anaviy sug‘urta tizimidagi ribo, g‘arar va maysir elementlari islom huquqi normalariga mutlaqo zid bo‘lib, aholining katta qismini moliya bozoridan uzoqlashtiruvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi o‘zining ulkan musulmon aholisi (94% dan ortiq) va jadal o‘sayotgan iqtisodiyoti bilan takaful tizimini joriy etish uchun yetarli salohiyatga ega. O‘RQ-1126-sonli qonunning qabul qilinishi mamlakatda islom moliyasi ekotizimini yaratishda muhim huquqiy o‘zgarish bo‘ldi, biroq sug‘urta sektorini to‘liq qamrab olish uchun maxsus regulyativ islohotlar talab etilmoqda. Qonunchilikka kiritilishi lozim bo‘lgan o‘zgartirishlarning amalga oshirilishi moliya bozoriga milliardlab dollar ichki va tashqi (ayniqsa, Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlaridan) investitsiyalarni jalb etishga, sug‘urta sektorining YAIMdagi ulushini sezilarli darajada oshirishga hamda xalqimizning iqtisodiy farovonligi va moliyaviy xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (Maxsus qism). O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-730-son, 23.11.2021-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-1126-son, 27.03.2026-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA/NAPP) — Sug‘urta bozori faoliyatining 2024-yil yakuniy tahliliy hisoboti.
5. Ayub, M. (2007). Understanding Islamic Finance: A Comprehensive Guide. John Wiley & Sons.
6. Obaidullah, M. (2005). Islamic Financial Services. Jeddah: King Abdulaziz University.
7. Siddiqi, M. N. (1985). Insurance in an Islamic Economy. Leicester: The Islamic Foundation.
8. Xudoyberdiyev, S. (2025). O‘zbekiston moliya bozorida Takaful modelini joriy etishning konseptual-institutsional masalalari. Iqtisodiyot va moliya jurnali, №3, 45-52-betlar.

9. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI). (2023). Shari'ah Standards for Islamic Financial Institutions. Manama, Bahrain.
10. Islamic Financial Services Board (IFSB). (2022). Guiding Principles on Governance for Takaful Undertakings. Kuala Lumpur, Malaysia.
11. IMARC Group. (2024). Global Takaful Market Share, Size, Growth and Industry Forecast 2024-2033.
12. Khan, M. M., & Bhatti, M. I. (2008). Islamic banking and finance: on its way to globalization. Harvard Asia Pacific Review, 9(2), 39-44.
13. Billah, M. M. (2019). Islamic Insurance Products: From Islamic Insurance to Takaful. Palgrave Macmillan.
14. Yusof, R. M., & Bahlous, M. (2011). Islamic Banking and Economic Growth: A Cointegration Approach. Journal of Islamic Accounting and Business Research, 2(2), 102-120.
15. Al-Azhar Islamic Research Academy. (1977). Resolutions on Commercial and Cooperative Insurance. Cairo, Egypt.